

ANDIJON DARG‘ALARI YOHUD ANDIJONDAN CHIQQAN BUYUK SHAXSLAR.

Axmadaliyeva Ummu Gulsum

*TDSHU Amaliy fanlar fakulteti. Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili
yo‘nalishi I-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Andijon viloyatining tarixiy, madaniy va ma‘naviy ahamiyati yoritilib, ushbu zamindan yetishib chiqqan buyuk shaxslar hayoti va ijodiy merosi tahlil qilinadi. Xususan, Zahiriddin Muhammad Bobur, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Abdulhamid Cho‘lpon hamda Muhammad Yusuf kabi mashhur allomalar va ijodkorlarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni ochib beriladi. Maqolada ularning ilm-fan, adabiyot, din va ma‘rifat rivojiga qo‘shgan hissasi tarixiy manbalar asosida bayon etilgan. Shuningdek, Andijonning qadimiy ilm va madaniyat markazi sifatidagi o‘rni asoslab beriladi. Tadqiqot yosh avlodni vatanparvarlik, ma‘naviy barkamollik va milliy merosga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Andijon, tarixiy meros, buyuk shaxslar, Zahiriddin Muhammad Bobur, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Abdulhamid Cho‘lpon, Muhammad Yusuf, adabiyot, ma‘naviyat, madaniyat, ma‘rifat, milliy qadriyatlar.*

Annotation: *This article highlights the historical, cultural, and spiritual significance of the Andijan region and analyzes the lives and creative heritage of great figures who originated from this land. In particular, the contributions of prominent scholars and writers such as Zahiriddin Muhammad Babur, Shaykh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Abdulhamid Cholpon, and Muhammad Yusuf are examined. The article emphasizes their roles in the development of science, literature, religion, and enlightenment, based on historical sources. It also underlines Andijan’s importance as an ancient center of knowledge and culture. The study aims to promote patriotism, spiritual maturity, and respect for national heritage among the younger generation.*

Keywords: *Andijan, historical heritage, great figures, Zahiriddin Muhammad Babur, Shaykh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Abdulhamid Cholpon, Muhammad Yusuf, literature, spirituality, culture, enlightenment, national values.*

Har bir xalqning tarixi va ma‘naviy boyligi u yetishtirgan buyuk shaxslar hamda muqaddas maskanlar orqali namoyon bo‘ladi. O‘zbekistonning qadimiy va tabarruk hududlaridan biri bo‘lgan Andijon ana shunday boy tarix va chuqur ma‘naviyatga ega o‘lka

hisoblanadi. Bu zamin asrlar davomida ilm-fan, adabiyot, davlat boshqaruvi va ma'rifat sohalarida nom qozongan ko'plab buyuk insonlarni yetishtirib bergan.

Andijon nafaqat tarixiy voqealari, balki ziyoratgohlari va ilm maskanlari bilan ham ajralib turadi. Ushbu darg'alar xalqimizning ma'naviy hayotida muhim o'rin egallab, yosh avlodni axloq-odob, ilmga hurmat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalab kelgan.

Ayniqsa, Andijondan yetishib chiqqan buyuk shaxslar faoliyati bu hududning tarixiy ahamiyatini yanada oshiradi. Ularning hayoti, ijodi va ilmiy merosi bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Shu bois Andijon darg'alari va Andijondan chiqqan buyuk shaxslar mavzusini o'rganish nafaqat tarixiy, balki tarbiyaviy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yilda Andijon shahrida tug'ilgan. U Temuriylar sulolasiga mansub bo'lib, yoshligidan ilm-fan, adabiyot va jang san'atiga qiziqqan. Fors va turkiy tillarini mukammal o'rgangan Bobur, yoshligida Farg'ona vodiysining hokimi bo'lgan, keyinchalik Hindistonda Boburiylar sulolasini tashkil qilgan. U 1530-yilda Hindistonning Agra shahrida vafot etgan.

Bobur nafaqat sarkarda, balki shoir va tarixchi sifatida ham mashhur bo'lgan. Uning eng mashhur asari — Boburnoma bo'lib, unda o'z hayoti, tarixiy voqealar, tabiat manzaralari va xalq hayoti haqida batafsil ma'lumot berilgan. Shu asar nafaqat tarixiy manba, balki adabiy meros sifatida ham katta ahamiyatga ega. Bobur bog'chalar yaratish, she'riyat va musiqa bilan shug'ullanishga katta e'tibor bergan, shuningdek madaniy merosni rivojlantirishga hissa qo'shgan.

Andijon Bobur hayotida muhim o'rin tutadi. U Andijon va atrofini Boburnomada tasvirlab, viloyatning tabiati, hosili, aholisi va madaniyati haqida fikr bildirgan. Shu bois Andijon nafaqat Boburning tug'ilgan joyi, balki uning ilmiy va adabiy merosida ham alohida o'rin egallaydi.

Bobur hayoti va ijodi bugungi kunda ham ilm-fan va adabiyot sohasida o'rganilmoqda va yosh avlod uchun ibrat manbai bo'lib xizmat qiladi.

Yetuk alloma, mujaddid, mufassir, muhaddis, faqih, mutafakkir, murshid, zohid Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf o'z zamonasida islom olamining yirik namoyandasi, ulkan arbob, SSSR Oliy Kengashining xalq deputati, O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy idorasining sobiq muftiysi, mustaqil O'zbekistonning birinchi muftiysi, ko'plab xalqaro ilmiy muassasalar, diniy tashkilotlarning a'zosi, o'zbekzabon xalqlarning diniy rahnamosi bo'lgan.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf 1969-yili Andijon viloyati Buloqboshi tumanidagi o'rta maktabni tugatgach, 1970 -yili Buxorodagi Mir Arab madrasasiga o'qishga kirdi. U paytda madrasadagi o'qish 7 yillik bo'lgan. Shayx Muhammad Sodiqni o'sha

kungacha hosil qilgan bilimi asosida bir yo‘la 5-bosqichga olishdi. Natijada u madrasani 3 yilda tamomladi. Uni darsda, ilmda ilg‘orligidan madarasadagi talabalar «peshqadam» deb atashardi.

Muhammad Yusuf domla ham farzandining yaxshi ilm olishi, taqvoda mustahkam bo‘lishi uchun bor kuchini sarfladi. Hatto o‘g‘lini boshqalar oraqali maxsus kuzatib bordi. Shayx Muhammad Sodiq 1973-yili madrasadan Imom Buxoriy nomidagi Toshkent Islom instituti (Oliy Ma’had)ga o‘qishga kirdi. Qabul imtihonidan yuqori baholarda o‘tgan Muhammad Sodiq institutga ham bir yo‘la 3-bosqichga qabul qilindi va uni ham 2 yilda a’lo baholarga bitirdi. 1976 -yili O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy idorasining yo‘llanmasi bilan Liviyaning Tripoli shahridagi «Islomiy da’vat fakulteti» nomli dorulfununga o‘qishga kirdi.

Shayx Muhammad Sodiq Liviya butun dunyodan kelgan talabalar orasida ham eng tirishqoq va eng ite’dodli talaba sifatida namoyon bo‘ldi. U 1980 -yili Liviya oliygohini eng yuqori ball bilan imtiyozli tamomlab, talabalar orasida birinchilikni qo‘lga kiritdi va dorulfunun tarafidan moddiy mablag‘ bilan mukofotlandi.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning ilk maqolalari 1975- yili «Sovet sharqi musulmonlari» nashriyotida ishlagan kezlari nashr qilina boshlagan.

1991 – 1993- yillari «Tafsiri Hilol» nomli Qur’oni Karim tafsirining 28 - 30-juzlari hamda «Poklik iymondandir» kitobi, 1992 yili «Iymon» va «Shoyadki taqvodor bo‘lsak», 1997- yili «Islom musaffoligi yo‘lida» asarlari chop qilindi.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf o‘z yurtida 2001 - 2015 -yillar orasida keng miqyosda ilmiy faoliyat olib bordi. Ko‘plab kitoblar, ovozli hamda tasvirli yozuvlarda ilmiy suhbatlar, mav’izalar, turkum darslar, ma’raka-yig‘inlardagi ma’ruzalari, xalqaro internet sahifasidagi 25000 dan ortiq turli mavzulardagi savol-javoblari bilan xalqning diniy savodi oshishiga, kishilarning sof Islomni anglashiga ulkan hissa qo‘shdi. Uning ilmiy asarlari sababli xalq orasidagi ko‘plab ixtilof va tortishuvlar barham topdi, hanafiy mazhabi mustahkamlandi, xatarli fitnalarning oldi olindi, qanchadan-qancha adashgan insonlar to‘g‘ri yo‘lni tuta boshladi, musulmonchilikdan bexabar odamlar o‘z musulmonchiligiga qaytdi, el orasida tinch-totuvlik, do‘stlik ruhi taraldi.

Uning rahbarligida xalqaro internet tarmog‘ida o‘zbek tilidagi sof islomiy sahifaga ilk bor asos solindi. Ushbu islom.uz sayti o‘zbek tilidagi eng faol va a’zosi eng ko‘p sahifa hisoblanadi. Islom.uz portali asosida turli yo‘nalishlardagi yigirmadan ortiq mustaqil sahifa yaratilib, ularning har biri o‘z mavzusida eng boy va eng faol saytlarga aylandi. U to‘qqizta hadis to‘plami tarjimasidan iborat «Oltin Silsila» hamda katta «Islom qomusi» loyihalari asoschisidir.

Abdulhamid Cho‘lpon 1897- yili Andijonda tug‘ilgan. Dastlab eski maktabda savod chiqargach keyinchalik o‘qishini rus-tuzem maktabida davom ettiradi. 1914- yili Toshkentga keladi va o‘z faoliyatini “Sadoi Turkiston” gazetasi bilan bog‘laydi. Uning asarlari Orenburg, Ufa, Qozon va Bog‘chasaroyda chiqadigan gazeta va jurnallarda ham bosilib turgan. 1916-1917 yillarda Orenburgda yashaydi va mahkamada kotib bo‘lib ishlaydi. 1920-yili Bokuda bo‘lgan Sharq xalqlari qurultoyida qatnashadi. O‘sha yili Fitrat taklifi bilan Buxoroga boradi va o‘zbek tilida chiqadigan “Buxoro axbori” gazetasiga rahbarlik qiladi. Bir yilcha ishlab Toshkentga qaytadi. Adabiyot va madaniyat ishlari bilan shug‘ullanadi. 1924-1926 yillarda Cho‘lpon Moskvada yashaydi. U yerda ochilgan O‘zbek dramstudiyasiga rahbarlik qiladi. Shundan keyin jadidlarga qarshi boshlangan kompaniya Cho‘lponni ham chetlab o‘tmadi. Ta‘qib va tazyiqlarga qaramay, u qizg‘in ijodiy faoliyat bilan shug‘ullandi. 30-yillarning boshida yana Moskvaga ketadi va SSSR Markaziy Ijroiya Komitetida tarjimon bo‘lib ishlaydi. Cho‘lpon 1937- yil 14 -iyulda qamoqqa olinadi va 1938- yil 4 oktyabrda otib o‘ldiriladi.

Sevimli shoirimiz Muhammad Yusuf 1954-yil 26-aprelda Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi Qovunchi qishlog‘ida dehqon oilasida tug‘ilgan. O‘rta maktabni tugatgach, Respublika Rus tili va adabiyoti institutida o‘qib, uni 1978-yilda bitirdi. Shoir 1978-1980- yillarda Kitobsevarlar respublika jamiyatida, 1980-1986- yillarda «Toshkent oqshomi» gazetasida, 1986-1992-yillarda G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyotida, 1992-1995- yillarda «O‘zbekiston ovozi» gazetasida, O‘zbekiston Axborot agentligida ishladi, 1995-1996- yillarda Davlat va jamiyat qurilish akademiyasida o‘qidi. 1997-yildan boshlab O‘zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi raisi o‘rinbosari lavoshmida ishladi. M. Yusuf O‘zbekistondagi eng yosh xalq shoiri hisoblanadi. Uning dastlabki she‘rlari «O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati» ro‘znomasida 1976-yilda chop etilgan edi. 2001-yil 31-iyul kuni bevaqt o‘lim shoirni oramizdan olib ketdi.

Andijon qadim zamonlardan buyon ilm-fan va madaniyat markazi sifatida xalq hayotida muhim o‘rin egallagan. Hududning tarixiy maskanlari va yetuk shaxslar merosi bugungi avlod uchun ibrat manbai bo‘lib, yoshlarni bilimga, odob-axloqqa va ma‘naviy kamolotga undaydi. Ilmiy va madaniy merosni o‘rganish, qadrlash va davom ettirish milliy o‘zlikni anglashda, kelajak avlodni tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi. Shu tariqa Andijon nafaqat tarixiy, balki ma‘naviy jihatdan ham boy zamin sifatida e‘tiborga loyiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmedov B. O‘zbekiston tarixi manbalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001. – 298 b.

2.Eshonqulov H., Vohidov R. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi, 2006. – 441 b

3.Nasirov A. Expression of spiritual experiences in art // International Journal on Integrated Education. – Volume 3, Issue XI, November 2020.

4.Sariyev Sh. Adabiyot. – Toshkent: Sharq, 2016. – 218 b.

5.Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Fan, 2018. – 418 b.